



# “TA’LIM TO’G’RISIDA”GI QONUN

O’RQ-637-son, 23.09.2020-y.)



## Har bir bola ta'lim olishga haqli.



U qaysi millatdan ekani, qaysi tilda gapirishi yoki oilasi qanday bo'lishidan qat'i nazar — hamma bolaga bir xil o'qish huquqi beriladi.



Bog'cha bolani o'qish va tarbiyaga o'rgatish uchun kerak. U uning aqli, odob-axloqi va sog'lom bo'lib o'sishini rivojlantiradi. Shuningdek, u bolani maktabga tayyorlaydi.




Bola 7 yoshga to'lganda, maktabning 1-sinfiga qabul qilinadi. Maktabdagi umumiy o'rta ta'lim bola uchun uzluksiz va majburiy bo'lib, u 11 yil davom etadi.



Bola 9 yillik tayanch o'rtta ta'limdan so'ng akademik litseylarda 2 yil davomida tahsil olishi mumkin. Bu ta'lim turi uning intellektual qobiliyatlarini tez rivojlantiradi hamda chuqur kasb-hunar va shaxsga yo'naltirilgan bilim olishiga imkon yaratadi.

Bola maktab yoki litseyni tugatgach, o'qishini oliy ta'limda davom ettirishi mumkin. Oliy ma'lumot universitet, akademiya, institut va oliy maktablarda olinadi.



Shuningdek, jismoniy, aqliy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yiladi. Bunda har bir bolaning imkoniyatiga mos sharoitlar yaratiladi va ularning ta'lim olish huquqi ta'minlanadi.

## Bola ta'lim olish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:



maktab yoki litseylarda bepul tahsil olish;



yashash joyidagi maktabga qabul qilinish;



o'ziga mos sharoitda o'qish va bepul tibbiy yordam olish;



zo'ravonlik va haqoratdan himoyalalanish;



dam olish va ta'til olish;



stipendiya olish, o'qishni tiklash, boshqa maktabga ko'chish;



ilmiy va ijodiy loyihalarda ishtirok etish.